



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Zafar Pardayev Shukurovich<sup>1</sup>

Kamola Suvanova Railqul qizi<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup>Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchilari

## O'QITUVCHI KASBIY STANDARTI – TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILMI?

**Annotatsiya.** Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham o'qituvchi eng qadimiy va obro'li kasb hisoblanib, «ustoz» deb e'zozlangan. O'lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o'qituvchilari domla deb ataldi.

**Kalit so'zlar:** standart, pedagog, masofali ta'lim, kasbiy standart

Barcha davrlar uchun mamlakatning har tomonlama salohiyatli bo'lishi eng muhim omillardan hisoblangan. Bunda malakali kadrlar va yoki mahoratli o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Albatta, yuqori mahoratli o'qituvchilar malakali, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishlariga shubha yo'q. Ammo, masalaning yana bir jihatiga e'tibor qaratish, bugungi kun talablaridan biriga aylandi. Ya'ni, o'qituvchining kasbiy standarti. Ommoviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlarda 2012 yilning bahorida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin Ta'lim vazirligiga matematika fani o'qituvchisi uchun professional standartni ishlab chiqishni buyurdi. O'qituvchilar uchun professional standartni ishlab chiqish uchun tuzilgan ishchi guruhga Moskva Ta'lim Markazining direktori E.A.Yamburg rahbarlik qildi. Ishga mualliflik uslublari bilan tanilgan, mamlakatning

xizmat ko'rsatgan o'qituvchilari jalb qilingan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan barcha takliflar Ta'lim va fan vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilindi. Istalgan o'qituvchi, ota-ona, manfaatdor jamoatchilik vakili zamonaviy o'qituvchining kasbiy standartlarini o'rganishi va o'z sharhlarini qoldirishi mumkin edi. Demak, o'qituvchi kasbiy standartining asl mohiyati: bugungi kun o'qituvchisi qanday talab va me'yorlarga mos bo'lishi, qanaqa fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini belgilab berishdan iborat.

Xo'sh, standart o'zi nima? **Standart** - (inglizcha - me'yor, namuna) so'zining keng ma'nosi - boshqa shunga o'xshash ob'yektlarni ular bilan taqqoslash uchun boshlang'ich sifatida olingan namuna, etalon, model.

Standart so'zining boshqa ma'nolari ham mavjud: umumiy qabul qilingan, tarixan o'rnatilgan qoidalar to'plami (oltin standart, kodlarni rasmiylashtirish standarti, ochiq standart, televizion eshittirish standartlari); namuna sifatida xizmat qiladigan mahsulot; majoziy ma'noda – o'ziga xos biron bir narsani o'z ichiga olmaydigan shablon, namuna.

**O'qituvchi** pedagog, o'rta va oliy ta'lim tizimi xodimi bo'lib, o'quvchi va talabalarni o'qitish bilan shug'ullanadi. Boshqa nomlari: «ustoz», «domla», «muallim».

**O'qituvchi**, muallim – turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablarida o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o'qituvchilari «domla» deb yuritiladi, ular «o'qituvchiprof» tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o'qituvchi nisbatan «muallim» yoki «pedagog» atamasi ham qo'llaniladi.

O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim-tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o'choqlarida topilgan tarixiy-madaniy obidalar bu o'lkalarda o'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o'qituvchilik bilan shug'ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo'lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o'qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning turli hududlarida grammatistlar, pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlanganlar va ko'pincha o'z shaxsiy maktablariga ega bo'lganlar. Boy oilalarda esa, ta'lim-tarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar («pedagog» so'zi shundan kelib chiqqan), ya'ni «bola yetaklovchilar» deb atalgan. Rim imperiyasida o'qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O'rta asrlarga kelib, G'arb mamlakatlarida o'qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug'ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma o'qituvchilar paydo bo'ldi. Texnika taraqqiy etib, fabrika-zavodlar ko'payishi bilan o'qituvchilik eng ommaviy kasblardan biriga aylandi. Chunki ma'lum darajada ta'lim ko'rmagan odam texnika vositalaridan foydalana olmas edi. Buning uchun esa, ko'plab

maktab va o'qituvchi kerak bo'lardi. Ayni vaqtda, 18-19-asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernyor singari uy o'qituvchilari xizmatidan ham foydalanish yo'lga qo'yilgan edi.

Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham o'qituvchi eng qadimiy va obro'li kasb hisoblanib, «ustoz» deb e'zozlangan. O'lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o'qituvchilari domla deb ataldi. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. O'lkamizda qizlarni o'qitishga ham alohida e'tibor qaratilib, savodli ayollar uylarida otinoyi maktablari tashkil etilgan. Bu maktab o'qituvchilari otinoyi yoki otinbibi deb yuritilgan. Ta'lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o'qishi, asosan, ota-onalarning ishi hisoblangani uchun ham Turkistonda o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ta'limda bugungi kunning talablaridan biri o'qituvchi standartini yaratish. Bu vazifani amalga oshirishning o'ziga xos qiyinchiligi bor, albatta. Ta'lim ishtirokchilarining psixolo-fiziologik fazilat, xususiyat va ehtiyojlari, mavjud sharoit, fanlarning o'ziga xos xususiyat va mazmuni, mamlakatlarning milliy mintalitet va geografik joylashishi kabi omillar o'qituvchi (tarbiya) (ta'lim muassasalari xodimlari: MTT, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar maktablari, OTM va boshqalar; fanlar: fizika, matematika, musiqa, geografiya, texnologiya, chizmachilik va hokazo) lar uchun yagona standart va me'yorni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkin-ki, har bir fan, mamlakat, mintaqa uchun kasbiy standartni mavjud turli vaziyat va sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Bunda masalaning har bir detaliga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2007.
2. Шевцова Л.А. Статья: К вопросу исследования готовности учителей к использованию НИТ. <http://www.rusedu.ru/>. – С.23-28.